

TO'QIMACHILIK MATOLARINING BIKIRLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI

OMILLAR TAVSIFI

Sabohat Ergashxo'jayeva

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Qo'qon filiali o'qituvchisi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada to'qimachilik sanoatida matolarining bikirligi va unga ta'sir etuvchi omillar va ularning tavsifi keltiriladi

KALIT SO'ZLAR: Paxta yetishtirish, paxta-to'qimachilik klasteri, kimyoviy tolalar, gigroskopik, T.Yu. Plyuxanova, mato moduli

KIRISH

To'qimachilik sanoatida ip hamda matolar ishlab chiqarish va ularni tayyor mahsulotgacha yetkazish, mahalliy xom-ashyodan to'laroq foydalanish masalalarini kompleks hal etish yengil sanoatni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda qudratli to'qimachilik sanoatini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Paxta yetishtirishdan tayyor to'qimachilik mahsuloti ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladigan paxta-to'qimachilik klasteri tuzish, tabiiy va kimyoviy tolalardan integratsiya asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biridir. To'qimachilik buyumlariga zarur shakl berish va tikuvchilik matolarinig mas'uliyatli qismlari deformatsiyasini me'yorlashtirish, sifatini ta'minlash maqsadida qotirma matolar qo'llaniladi. Qotirma matolarni ishlab chiqarish texnologiyalari, ularning tuzilishi va turlarini ko'paytirishga bag'ishlangan tadqiqotlarning holatini vazifasiga qarab maqsad va vazifalar bo'yicha tahlil qilish maqsadlidir.

ASOSIY QISM

Ishlab chiqarish nazorati va hisob kitoblarni tuzishda, tikuvchilikda ishlatiladigan to'qimalarni ma'lum tartibda foydalanish uchun sanoatda tasnif va me'yoriy hujjatlar tuzilgan. Ushbu hujjatlar to'qimachilik tolalari va barcha turdagi iplardan tayyorlangan maishiy foydalanish uchun tayyor matolarga nisbatan qo'llaniladi va nam ishlov berishdan keyin o'lchamlarni o'zgartirish standartlarini belgilaydi. Standart teksturali iplardan, maxsus tuzilmadagi, jun, yarim jun, ipak va yarim ipak idoraviy matolar, shuningdek, nam ishlov berishdan o'tmaydigan texnik va maxsus maqsadlardagi matolarga taalluqli emas. Qo'yilgan maqsadga qarab to'qimachilik matolar tasnifi bir yoki bir nechta ko'rsatgichlar bilan birlashtirilgan bo'lishi mumkin. Bitta ko'rsatgich bilan tasniflash misolida keltirilishi mumkin.

To'qimachilik matolarining bikirligi. Tahlil va tadqiqot natijasida to'qimaning o'rinish rapporti, zichligi va ipning chiziqli zichligining o'zgarishi to'qimaning xossa ko'rsatgichlaridan foydalanib ishlab chiqarilgan to'qimalarning bikrligini aniqlashda uskuna tayyorlanib gazlamaning bikrligi tikuvchilik sanoatining eng muhim xossalaridan birini aniqlash metodikasi yoritilgan va tajribalardan namunalar keltirilib, bikrlikning eng muhim ko'rsatgichlardan biri ekanligi aniqlangan.

Tikuv materiallaridan to'g'ri va oqilona foydalanish uchun ularning kiyimga qo'yiladigan talablar bilan belgilanadigan xususiyatlarini texnik, gigienik, estetik va iqtisodiy bilish kerak. Kiyim shaklini yaxshi saqlab turishi, yetarlicha mustahkam, tashqi muhitga bardoshli, issiqlikdan himoya qiluvchi xususiyatlarga ega va gigroskopik bo'lishi kerak. Kiyim asosan cho'zuvchi, bukuvchi, ezuvchi, ishqalanish kuchlar ta'sir etishi sababli eskirishi mumkin. Shu sababli kiyimning shaklini yaxshi saqlanishida va uzoqqa chidashida gazlamaning turli mexanik ta'sirlarga chidamliligi – mexanik xossalari katta rol o'ynaydi. Gazlamaning mexanik xossalariga pishiqligi, uzayishi, to'zishga chidamliligi, g'ijimlanuvchanligi, draplanuvchanligi, bikrligi va boshqa xossalari tahlil qilingan.

To'qimachilik gazlamalarining bikrligi bevosita uning tuzilishiga bog'liq. Gazlamaning tuzilish nazariyasini rivojlanishiga ko'pgina olimlar hissa qo'shgan. Gazlamaning tuzilish fazalari to'g'risidagi yangi usulini T.Yu. Plyuxanova tomonidan ilmiy tadqiqod ishlarida ispotlab bergan. U tanda va arqoq iplarini o'zaro joylashishdan kelib chiqib to'qqiz faza tartibini farqlanishi va gazlamaning tuzilish fazalarining turli fazalari bilan nomladi. Ishda nazariy va eksperimental tadqiqotlar olib borgan. Nazariy tadqiqotlarda differensial va integral hisoblash usullari, materiallarning nazariy mexanikasi va mustahkamligi usullari, mexanizmlar va mashina qismlari nazariyasidan foydalanilgan. Eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishda mavjud asbob-uskunalar, o'lchash asboblari, eksperimentni rejalashtirish va tahlil qilishning zamonaviy usullaridan foydalanildi. To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita o'lchovlarning xatolari matematik statistika va xatolar nazariyasi usullari bilan aniqladi.

Tikuv buyumlarining zarur shaklini saqlanishini ta'minlovchi matoning asosiy xususiyatlaridan bikrligi Gost 29104.21-91[8] standarti orqali aniqlanadi. Ushbu xalqaro standart texnik matolarga nisbatan qo'llaniladi va egiluvchan bikirlikni aniqlash usullarini belgilaydi. Bu standartga ko'ra bikirlik konsol-kontakt usuli yoki halqa usuli yordamida aniqlanadi. Konsol-kontakt usulining mohiyati elementar namunaning birlik maydonining egriligiga taalluqli o'z og'irligi ta'sirida elementar to'qima namunasining egilishi uchun zarur bo'lgan egilish momentini aniqlashdan iborat. Halqa usulining mohiyati halqaga egilgan to'qimalarning elementar namunasini uning diametrining 1/3 qismiga burish uchun zarur bo'lgan yukni aniqlashdir. Usulni qo'llash ish sharoitlariga qarab, ma'lum turdagi mato uchun normativ-texnik hujjatlarda nazarda tutilgan.

Yuqori unumdorlikda ishlab chiqariladigan to'qimalarda mato bikrligi asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Amerikalik olimlarning izlanishlarida turli to'qimalarning

ayrim xossalarini mato bikrligiga ta'siri o'rganilgan. Ushbu maqsadda ko'p qatlamli to'qimalarni tanda iplari asosida ilmiy ishlar olib borilgan. Izlanishlar natijasida mato bikrligiga tanda ipining chiziqli zichligi, to'ldirilish ko'effitsiyenti hamda tanda va arqoq ipi yo'nalishi bo'yicha zichligi uzviy bog'liqligini aniqlangan. Sinov matolarining sirt ko'rinishi, ya'ni dizayni ham mato bikrligiga ta'siri o'rganilgan. Matoning egilishdagi bikrligi ko'p harakatlanuvchi matolar uchun muhim xsusiyatlardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda turli matolarning bikrligi o'rtasidagi bog'lanishlar tahlil qilish maqsadida bir necha bir qatlamli matolar bo'yicha sinovlar bikrligi burilish diametri, ipning chiziqli zichligi va matoning zichligi o'rtasidagi 95 bog'lanishlar tadqiq qilingan.

XULOSA

Sinov namunalarining bikrlik va mustahkamlik ko'rsatkichlarni bilgan holda gazlamalarning qancha muddat foydalanishni aniqlash mumkin. Bundan tashqari bikrlik ko'rsatkichi kamaygan sari kiyimning yaxshi dazmollanmasligi, g'ijimlanish ko'effitsiyenti oshishi aniqlandi. Bunga asosiy sabablardan biri gazlamaning qisqarishi hajmiy bir xil bo'lmaganligidadir.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.Abdurahmonov, D.N.Qodirova. To'qimaning yangi assortimentini yaratish. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi sharoitida innovatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari. To'qimachi-2017. Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to'plami
2. Могильный А.Н. Разработка технологии, методов проектирования и исследование структуры и свойств текстильных материалов технического назначения: Автореф. дис. докт. техн. наук. – Санкт – Петербург: СПбГУТиД, 2000 й. – 36 с.
3. Кадирова Д.Н. Исследование и стабилизация натяжения нитей основы на бесчелночных ткацких станках. Дисс. Канд.техн.наук., Ташкент, ТИТЛП., 2002 й